

“NURONIY” JAMG’ARMASINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI VA FAOLIYATINING IJTIMOY AHAMIYATI

Xushbaqova Aziza

Axborot Texnologiyalari va Menejment universiteti

1-kurs magistratura

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22842415>

Received: 14 September 2026 • Accepted: 18 September 2026 • Published: 19 September 2026

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda keksa avlod vakillari, faxriylar va nuroniylarning huquqiy hamda ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan “Nuroni” jamg‘armasining tashkiliy-huquqiy asoslari va ijtimoiy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda jamg‘armaning huquqiy maqomi, uning tashkil etilishi va faoliyatining evolyutsiyasi, davlat siyosati tizimidagi o‘rni, mahalla instituti bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmlari, keksa avlodning ijtimoiy faolligini ta‘minlashdagi funksiyalari hamda yoshlar tarbiyasidagi institutsional imkoniyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, jamg‘arma faoliyatini tartibga soluvchi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni tizimli ravishda tahlil qilinib, “Nuroni” jamg‘armasining faqat ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchi tuzilma emas, balki avlodlararo hamkorlik, jamoatchilik faolligi, ma‘naviy merosning davomiyligi, oilaviy barqarorlik va mahalladagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitni mustahkamlashga xizmat qiluvchi institut sifatidagi xususiyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida jamg‘arma faoliyatining zamonaviy ijtimoiy himoya tizimi bilan integratsiyasini kuchaytirish, faol nuroniylarning tajribasidan foydalanishning aniq mexanizmlarini kengaytirish, faoliyat samaradorligini baholashning mezonlarini takomillashtirish va raqamli boshqaruv elementlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar:

“Nuroni” jamg‘armasi, nuroniylar, faxriylar, keksa avlod, ijtimoiy himoya, tashkiliy-huquqiy asoslar, jamoat birlashmasi, mahalla, avlodlararo hamkorlik, ijtimoiy faollik, ijtimoiy xizmat, ma‘naviy meros, jamoatchilik nazorati.

KIRISH

O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va fuqarolarning munosib turmush sharoitlarini ta‘minlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda keksa avlod vakillarining huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ularning jamiyat hayotidagi o‘rnini saqlab qolish hamda hayotiy tajribasidan ijtimoiy taraqqiyot manfaatlari yo‘lida foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Keksalikni faqat ijtimoiy yordamga ehtiyoj mavjud bo‘lgan hayot bosqichi sifatida baholash zamonaviy ijtimoiy siyosatning mazmunini to‘liq ifodalamaydi. Chunki uzoq yillik mehnat faoliyati, kasbiy tajriba, hayotiy bilim, ijtimoiy munosabatlar va ma‘naviy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan nuroniylar jamiyatning muhim ijtimoiy kapitali hisoblanadi. Shu nuqtayi nazaridan O‘zbekistonda keksa avlod vakillarini qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda ularning ijtimoiy faolligini ta‘minlash, jamoatchilik hayotidagi ishtirokini kengaytirish va avlodlar o‘rtasidagi uzviylikni mustahkamlashga qaratilgan institutsional mexanizmlar shakllantirilgan. Ana shunday tuzilmalardan biri “Nuroni” jamg‘armasidir. Jamg‘armaning bugungi maqomi va

faoliyat yo'nalishlarini tushunish uchun uning rivojlanish jarayoniga kompleks yondashish talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda PF-4906-son Farmoni bilan jamg'arma nomi O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamoat birlashmasi shaklidagi "Nuroni" jamg'armasi sifatida belgilanishi va unga faxriylarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash, yoshlarni vatanparvarlik va keksa avlodga hurmat ruhida tarbiyalash, davlat siyosatini amalga oshirishga ko'maklashish kabi muhim vazifalarning yuklatilishi jamg'arma faoliyatining mazmunan kengayganini ko'rsatadi [1]. Keyingi bosqichda keksa avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 2022-yil 15-martdagi PQ-167-son qaror jamg'armaning tashkiliy tuzilmasini va uning faoliyat yo'nalishlarini yanada tizimlashtirdi [2]. 2023-yil 11-martdagi PQ-92-son qarorda esa faol nuroniylarning jamiyatdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan "Bir nuroni o'n yoshga mas'ul" hamda "Nuroni har bir oilaga mas'ul" kabi yondashuvlarning institutsional asoslari belgilandi [3]. Mazkur huquqiy rivojlanish "Nuroni" jamg'armasining faoliyati faqat moddiy ko'mak bilan cheklanmasligini, balki ijtimoiy profilaktika, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, yoshlar tarbiyasi, oilalarni qo'llab-quvvatlash, mahalla hayotidagi jamoatchilik ishtiroki va avlodlararo muloqot kabi yo'nalishlarni ham qamrab olishini ko'rsatadi. 2024-yil 27-dekabrda Vazirlar Mahkamasining 892-son qarori bilan faol nuroniylarni Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarga biriktirish va ularni mahallada sog'lom turmush tarzi hamda ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga jalb etish tartibining belgilanishi mazkur institutning ijtimoiy himoya tizimi bilan integratsiyalashuvini yanada kuchaytirdi [4]. Shu sababli "Nuroni" jamg'armasi faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish bugungi kunda nafaqat jamoat tashkilotlari faoliyatini tadqiq etish, balki davlatning ijtimoiy siyosati, mahalla instituti, ijtimoiy xizmatlar tizimi va avlodlararo munosabatlarning huquqiy mexanizmlarini o'rganish nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi "Nuroni" jamg'armasining tashkiliy-huquqiy maqomi va faoliyat yo'nalishlarini tizimli tahlil qilish, uning jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalarini aniqlash hamda mavjud institutsional mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirishdan iborat. Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasida nuroniylar va faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy munosabatlar bo'lsa, predmeti "Nuroni" jamg'armasining faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy mexanizmlar va uning ijtimoiy faoliyat shakllaridir.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqotda "Nuroni" jamg'armasining tashkiliy-huquqiy asoslari va ijtimoiy ahamiyatini aniqlash uchun normativ-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, institutsional tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, tarixiy-huquqiy metod, funksional tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Normativ-huquqiy tahlil orqali jamg'arma faoliyatiga bevosita yoki bilvosita taalluqli Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda ijtimoiy himoya sohasidagi huquqiy hujjatlar o'rganildi. Tizimli yondashuv jamg'arma faoliyatini alohida tashkilot doirasida emas, balki davlat organlari, mahalla, ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar, ta'lim tashkilotlari, jamoat birlashmalari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tizimining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Institutsional tahlil asosida "Nuroni" jamg'armasining tashkiliy maqomi, markaziy va hududiy bo'linmalari, mahallalardagi faol nuroniylar, "Keksalar maslahati" guruhlari hamda boshqa jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlari o'rganildi. Tarixiy-huquqiy metod orqali jamg'armaning avvalgi faxriylar tashkiloti sifatidagi faoliyatidan zamonaviy ijtimoiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi institut sifatidagi maqomigacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Funksional tahlil yordamida jamg'armaning ijtimoiy himoya, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy, maslahat, vositachilik, jamoatchilik va avlodlararo kommunikativ funksiyalari ajratib ko'rsatildi. Tadqiqotda rasmiy normativ-huquqiy manbalar asosiy manba sifatida tanlandi. Xususan, 2016-yildagi PF-4906-son Farmon, 2022-yildagi PQ-167-son qaror, 2023-yildagi PQ-92-son qaror, 2023-yildagi PQ-410-son qaror hamda 2024-yildagi 892-son Vazirlar Mahkamasi qarorining tegishli qoidalari o'rganildi. Bunda huquqiy normalarning faqat mazmunini qayd etish bilan cheklanmasdan, ularning jamiyatdagi real institutsional vazifalar bilan bog'liqligi ham tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini keksa avlod vakillarining ijtimoiy himoyasi faqat kompensatsion yordam bilan emas, balki ularning ijtimoiy kapitalidan foydalanish, ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash va faol fuqarolik pozitsiyasini qo'llab-quvvatlash

orqali amalga oshirilishi mumkinligi haqidagi yondashuv tashkil etdi. Shu bilan birga, normativ hujjatlarda belgilangan vazifalar bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida davlat organlarining rasmiy axborot materiallari ham o'rganildi. Tadqiqotning muhim metodologik jihati shundan iboratki, jamg'armaning ijtimoiy ahamiyati faqat amalga oshirilayotgan tadbirlar soni bilan emas, balki ushbu tadbirlarning keksalarning ijtimoiylashuvi, oilaviy va mahalliy munosabatlarning mustahkamlanishi, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda jamoatchilik faolligiga ta'siri bilan baholandi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari "Nuroni" jamg'armasining tashkiliy-huquqiy asoslari bosqichma-bosqich rivojlangan va ko'p funktsiyali institutsional tizim shakliga kelganini ko'rsatadi. Jamg'armaning zamonaviy huquqiy maqomi, avvalo, uning jamoat birlashmasi shaklidagi tashkilot sifatida faoliyat yuritishi bilan tavsiflanadi. 2016-yilgi PF-4906-son Farmonda jamg'armaning nomi va asosiy vazifalari qayta belgilangan bo'lib, hujjatda faxriylarning mamlakatni yangilash va rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlashdagi, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash, yoshlarni vatanparvarlik va keksa avlodga hurmat ruhida tarbiyalash, keksalar hayoti darajasini oshirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishga ko'maklashish kabi yo'nalishlar belgilangan [1]. Mazkur normalar jamg'armaning huquqiy mohiyatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki tashkilotning faoliyati faqat ma'lum bir ijtimoiy guruhga moddiy yordam ko'rsatishdan iborat emas, balki jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan kengroq funktsiyalarni ham qamrab oladi. 2022-yilgi PQ-167-son qaror esa jamg'arma faoliyatini yangi bosqichga olib chiqib, uning markaziy apparati va hududiy bo'linmalari tuzilmasini belgilash hamda keksalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni tizimlashtirishga xizmat qildi [2]. Mazkur huquqiy mexanizm natijasida "Nuroni" jamg'armasi hududiy darajadagi faoliyatini muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan institutsional tuzilma sifatida yanada aniq shakllandi. Tashkiliy jihatdan markaziy apparat va hududiy bo'linmalarining mavjudligi umumiy siyosiy va ijtimoiy maqsadlarni hududlarning o'ziga xos ehtiyojlari bilan bog'lash imkonini beradi. Bunday model ijtimoiy siyosatni "markazdan hududga" bir tomonlama yetkazish emas, balki mahalliy sharoit, aholining ehtiyoji va faol nuroniylarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish uchun zarur institutsional asos yaratadi. Tadqiqotda aniqlangan ikkinchi muhim natija shundan iboratki, jamg'arma faoliyatining ijtimoiy funktsiyasi so'nggi yillarda bevosita ijtimoiy himoya tizimi bilan yaqinlashib bormoqda. 2023-yil 27-dekabrda PQ-410-son qarorda o'zgaralar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha alohida chora-tadbirlar belgilangan [5]. Bu jarayonda "Nuroni" jamg'armasi faoliyatining davlat ijtimoiy xizmatlari bilan uzviyligi kuchayib, keksalarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiylashuvini ta'minlash masalalari mahalla darajasidagi mexanizmlar bilan bog'lanmoqda. Uchinchi muhim natija faol nuroniylarning jamiyatdagi ijtimoiy rolini kengaytirish bilan bog'liq. 2023-yil 11-martdagi PQ-92-son qaror asosida "Bir nuroni o'n yoshga mas'ul" tamoyili va "Nuroni har bir oilaga mas'ul" loyihasi kabi mexanizmlar joriy etilib, nuroniylarning tajribasini yoshlar tarbiyasi va oilaviy muammolarni oldini olish jarayonlariga jalb etish nazarda tutilgan [3]. Mazkur mexanizmning ijtimoiy ahamiyati shundaki, keksa avlod vakili passiv yordam oluvchi subyekt emas, balki jamiyatdagi muayyan muammolarni hal qilishda ishtirok etuvchi faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuv keksalikning ijtimoiy rolini qayta talqin qilishga imkon beradi. To'rtinchi natija jamg'arma faoliyatining mahalla instituti bilan chambarchas bog'langanligidir. Mahalla kundalik ijtimoiy munosabatlar shakllanadigan eng quyi, biroq eng muhim ijtimoiy makonlardan biri bo'lib, aynan shu darajada keksa avlod vakillarining oilalar, yoshlar, qo'shnilar va boshqa ijtimoiy guruhlar bilan munosabatlari shakllanadi. "Keksalar maslahati" guruhlar va faol nuroniylarning mahalla hayotidagi ishtiroki mahalliy ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularning oldini olishda qo'shimcha ijtimoiy resurs yaratadi. Beshinchi natija jamg'arma faoliyatining kambag'allikni qisqartirish va oilalarning ijtimoiy muammolarini hal etish jarayonlariga ham kirib borayotganidir. 2024-yil 27-dekabrda 892-son qaror bilan faol nuroniylarni Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarga birlashtirish tartibi belgilangan bo'lib, faol nuroniylarga mazkur oilalar farzandlarining ta'lim olish sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashish, o'quv jihozlari, qurollari va sport kiyimlariga ehtiyojni aniqlash kabi

vazifalar yuklatilgan [4]. Ushbu mexanizm ijtimoiy yordamning manzilliligini kuchaytirish imkonini beradi. Chunki mahallada yashaydigan faol nuroniy oila sharoitini bevosita bilishi, mavjud muammoni tezroq aniqlashi va tegishli tashkilotlarga murojaat qilishda vositachi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, bu model davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarni jamoatchilikning ichki resurslari bilan to'ldirish imkonini yaratadi. Oltinchi natija jamg'arma faoliyatining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati bilan bog'liq. Nuroniyning hayotiy tajribasi, kasbiy faoliyati, tarixiy xotirasi va oilaviy qadriyatlar haqidagi bilimlari yosh avlodni tarbiyalashda muhim pedagogik resurs bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu ma'noda "uch avlod uchrashuvlari" kabi tadbirlar oddiy madaniy tadbir emas, balki avlodlar o'rtasidagi ijtimoiy kommunikatsiyani rivojlantirish vositasi sifatida baholanishi lozim. 2026-yilgi davlat dasturida ham nuroniy larni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj keksalar holidan muntazam xabar olish, nuroniy larning tarixiy va diqqatga sazovor joylarga sayohatlarini tashkil etish hamda mahallalar, ta'lim muassasalari, tashkilotlar va harbiy qismlarda "Uch avlod uchrashuvi" tadbirlarini o'tkazish vazifalari belgilangan [6]. Demak, jamg'arma faoliyatining amaliy yo'nalishlari ijtimoiy yordam, ijtimoiy faollik, tarbiyaviy ish, ma'naviy meros, sog'lom turmush tarzi va jamoatchilik hamkorligini o'zaro bog'lovchi kompleks tizimga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, tahlil natijalari jamg'arma faoliyatini baholashda miqdoriy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda sifat ko'rsatkichlaridan ham foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Masalan, o'tkazilgan tadbirlar sonining ko'pligi o'z-o'zidan yuqori ijtimoiy samaradorlikni anglatmaydi. Asosiy mezonlar sifatida ijtimoiy himoyaga muhtoj keksalarning qamrovi, aniqlangan muammolarning hal etilish darajasi, faol nuroniy larning doimiy ishtiroki, yoshlar bilan muloqotning natijadorligi, oilaviy muammolarning profilaktikasi va mahalladagi ijtimoiy muhitga ta'sir kabi indikatorlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

MUHOKAMA

"Nuroni" jamg'armasining tashkiliy-huquqiy rivojlanishini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda keksa avlodga nisbatan davlat va jamiyat munosabati faqat ijtimoiy ta'minot paradigmasi doirasida qolib ketmayapti. An'anaviy yondashuvda keksa yoshdagi shaxs ko'proq yordamga muhtoj bo'lgan ijtimoiy guruh vakili sifatida qaraladi. Bunday yondashuv zarur bo'lsa-da, uning o'zi keksalarning jamiyatdagi barcha imkoniyatlarini qamrab olmaydi. Chunki insonning yoshi ulg'aygani bilan uning bilim, tajriba, kasbiy ko'nikma, ijtimoiy aloqa va ma'naviy resurslari yo'qolmaydi. Aksincha, ushbu resurslardan oqilona foydalanish jamiyat uchun qo'shimcha ijtimoiy kapital yaratishi mumkin. "Nuroni" jamg'armasining faoliyatida aynan shu yondashuvning elementlari kuzatiladi. 2016-yildagi PF-4906-son Farmonda faxriylarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishga qo'llab-quvvatlash, yoshlarni tarbiyalashga jalb etish va davlat siyosatini amalga oshirishga ko'maklashish vazifalarining belgilanishi jamg'arma faoliyatining mazmunini kengaytirgan [1]. Bu holatni ijtimoiy siyosatning "yordam oluvchi shaxs" modelidan "faol ijtimoiy subyekt" modeliga o'tishining institutsional ko'rinishi sifatida talqin qilish mumkin. Shu bilan birga, bunday model muayyan xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Birinchidan, faol nuroniy larning jamiyatdagi rolini oshirish bilan ularning zimmasiga haddan tashqari ko'p ijtimoiy mas'uliyat yuklash o'rtasidagi chegara aniq belgilanmasa, jamoatchilik faoliyati ixtiyoriylik xususiyatini yo'qotishi mumkin. Ikkinchidan, barcha nuroniy larni bir xil ijtimoiy imkoniyatga ega deb qabul qilish noto'g'ri bo'ladi. Keksalarning sog'lig'i, yashash sharoiti, ta'lim darajasi, oilaviy holati, iqtisodiy imkoniyatlari va raqamli texnologiyalardan foydalanish qobiliyati bir-biridan sezilarli farq qiladi. Shu sababli jamg'arma faoliyatida "faol nuroni" va "ijtimoiy himoyaga muhtoj nuroni" tushunchalarini amaliy jihatdan farqlash, ularga mos xizmat va ishtirok mexanizmlarini shakllantirish talab etiladi. Uchinchidan, jamg'arma faoliyatining samaradorligi davlat organlari, mahalla va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik darajasiga bevosita bog'liq. Agar jamg'arma tomonidan aniqlangan muammo tegishli davlat yoki jamoat tuzilmasiga o'z vaqtida yetkazilmasa, nuroniy larning vositachilik funksiyasi formal tusga kirishi mumkin. Shu sababli jamg'arma faoliyatida "muammoni aniqlash — tegishli tashkilotga yo'naltirish — ijroni kuzatish — natijani baholash" ketma-ketligiga asoslangan mexanizmni kuchaytirish zarur. To'rtinchidan, jamg'arma faoliyatining ijtimoiy ahamiyati uning mahalla instituti bilan hamkorligi orqali sezilarli darajada oshadi. Mahalla aholi o'rtasidagi real ijtimoiy munosabatlarga eng yaqin bo'lgan hududiy tuzilma bo'lganligi sababli, faol

nuroniylarning mahalladagi ishtiroki oilaviy nizolar, yoshlar tarbiyasi, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni aniqlash va jamiyatdagi birdamlikni kuchaytirishda qo'shimcha resurs bo'lishi mumkin. Biroq bu faoliyat huquqiy vakolatlar bilan aralashtirilmaligi kerak. Nuroniylarning maslahatchilik va jamoatchilik funksiyasi davlat organlarining vakolatlarini almashtirmasligi, aksincha ularni to'ldirishi lozim. Ayniqsa oilaviy nizolar, tibbiy muammolar, huquqiy masalalar va ijtimoiy xizmatlarga ehtiyoj mavjud bo'lgan holatlarda professional mutaxassislar ishtiroki ta'minlanishi kerak. Beshinchidan, jamg'arma faoliyatining ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishi alohida e'tiborga loyiq. O'zbek jamiyatida katta avlodga hurmat, mahalla birdamligi, oilaviy qadriyatlar va avlodlar davomiyligi muhim ijtimoiy qadriyatlar sifatida shakllangan. Biroq mazkur qadriyatlarni yosh avlodga faqat targ'ibot shaklida yetkazish yetarli emas. Yoshlar va nuroniylar o'rtasidagi bevosita muloqot, birgalikdagi loyihalar, kasbiy mahorat darslari, tarixiy xotira tadbirlari va ijtimoiy loyihalar mazkur qadriyatlarni amaliy tajriba orqali uzatish imkonini beradi. "Uch avlod uchrashuvlari"ning ta'lim muassasalari, tashkilotlar va harbiy qismlarda tashkil etilishi shu nuqtayi nazardan muhimdir [6]. Oltinchidan, "Nuroni" jamg'armasining ijtimoiy ahamiyatini baholashda uning kambag'allikni qisqartirish jarayonidagi ishtiroki ham e'tiborga olinishi kerak. 2025-yilda davlat organlari va jamg'arma ishtirokidagi tadbirlarda nuroniylarning mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, tomorqadan samarali foydalanish va aholini daromadli mehnatga jalb etish borasidagi targ'ibot-tashviqot ishlaridagi roli alohida qayd etilgan [7]. Bu yerda nuroniylarning asosiy resursi moliyaviy emas, balki hayotiy tajriba, ijtimoiy ishonch va mahalladagi obro'-e'tibor ekanligi ko'rinadi. Shu sababli nuroniylarning kambag'allikni qisqartirishdagi ishtiroki bevosita moddiy yordam tarqatishdan ko'ra, oilalarni mavjud imkoniyatlardan foydalanishga yo'naltirish, mehnatga jalb etish, tadbirkorlik va tomorqachilik bo'yicha hayotiy tajribani yetkazish shaklida tashkil etilganda samaraliroq bo'lishi mumkin. Yettinchidan, zamonaviy davrda jamg'arma faoliyatining raqamli komponentini kuchaytirish zarur. Ijtimoiy reyestrlar, mahalla ma'lumotlari va ijtimoiy xizmatlar tizimlari bilan ma'lumot almashinuvi yo'lga qo'yilsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj keksalarni aniqlash va ularga xizmat ko'rsatishning manzilliligi oshishi mumkin. Bunda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, ma'lumotlardan foydalanish vakolatlari va axborot xavfsizligi talablariga qat'iy rioya etilishi lozim. Sakkizinchidan, jamg'arma faoliyatining samaradorligini ilmiy asosda baholash tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Hozirgi amaliyotda tadbirlar, uchrashuvlar, sayohatlar, yordam ko'rsatish holatlari kabi miqdoriy ko'rsatkichlar muhim o'rin tutadi. Biroq ijtimoiy siyosat samaradorligi faqat tadbirlar soni bilan o'lchanmaydi. Masalan, 100 ta uchrashuv o'tkazilgani haqida ma'lumot berishdan ko'ra, ushbu uchrashuvlardan keyin nechta ijtimoiy muammo hal etilgani, nechta yoshga kasbiy yoki hayotiy maslahat berilgani, nechta oilada muammo profilaktikasi amalga oshirilgani va nechta ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxs tegishli xizmatlarga yo'naltirilgani ancha muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan "Nuroni" jamg'armasi faoliyatini baholash uchun ijtimoiy ta'sir ko'rsatkichlarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi.

NATIJALARNING ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI

Tadqiqot natijalari "Nuroni" jamg'armasining ijtimoiy institut sifatidagi o'rnini uch asosiy darajada izohlash imkonini beradi. Birinchi daraja — individual daraja bo'lib, bunda jamg'arma va uning hududiy tuzilmalari keksa yoshdagi shaxsning ijtimoiy faolligi, jamiyat bilan aloqasi, muammolarini aniqlash va tegishli ko'makka yo'naltirish vazifalarini bajaradi. Ikkinchi daraja — oilaviy va mahalliy daraja bo'lib, bunda faol nuroniylarning oilalar, yoshlar va mahalla aholisi bilan ishlashi orqali ijtimoiy muammolarning oldini olishga xizmat qiluvchi mexanizmlar shakllanadi. Uchinchi daraja — jamiyat darajasi bo'lib, bunda jamg'arma keksa avlodning tajribasini ijtimoiy taraqqiyot, yoshlar tarbiyasi, ma'naviy qadriyatlarning davomiyligi va jamoatchilik faolligiga yo'naltirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan jamg'armaning ijtimoiy ahamiyatini faqat keksalarni qo'llab-quvvatlash doirasi bilan cheklash ilmiy jihatdan tor yondashuv bo'ladi. Uning faoliyati avlodlararo ijtimoiy kapitalni saqlash va qayta ishlab chiqarish mexanizmi sifatida ham baholanishi mumkin. Jamiyatda kasbiy tajriba va hayotiy bilimlarning avlodlardan avlodga o'tishi uzluksizligini ta'minlashda nuroniylarning roli muhim. Xususan, muhandislik, ta'lim, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, sanoat, davlat boshqaruvi, harbiy xizmat, madaniyat va boshqa sohalarida uzoq yillar faoliyat yuritgan faxriylarning tajribasi yosh mutaxassislar

uchun qo'shimcha norasmiy ta'lim resursi bo'lishi mumkin. Shu sababli jamg'arma faoliyatida "tajriba maktabi", "ustoz-shogird", kasbiy maslahat, yosh mutaxassislar bilan uchrashuvlar kabi yo'nalishlarni kengaytirish mumkin. Bunday mexanizm keksalarni ijtimoiy hayotga jalb etish bilan birga yoshlarning kasbiy moslashuviga ham yordam beradi. Bundan tashqari, jamg'armaning ijtimoiy himoya tizimi bilan integratsiyasi manzilli yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kuchaytiradi. 892-son qarorda faol nuroniylarni Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarga birlashtirish tartibining belgilanganligi mazkur integratsiyaning amaliy ko'rinishlaridan biridir [4]. Mazkur tizimni rivojlantirish uchun har bir hududda nuroniylarning tajribasi va imkoniyatlaridan kelib chiqib faoliyat yo'nalishlarini tabaqalashtirish mumkin. Masalan, pedagogik tajribaga ega nuroniylar yoshlar ta'limi va tarbiyasi yo'nalishida, tibbiyot sohasi faxriylari sog'lom turmush tarzi bo'yicha maslahat yo'nalishida, tadbirkorlik tajribasiga ega bo'lganlar oilalarning daromad manbalarini kengaytirish bo'yicha maslahat yo'nalishida, ishlab chiqarish sohasi faxriylari esa kasbga yo'naltirish va mehnat tarbiyasi yo'nalishida jamoatchilik faoliyatiga jalb etilishi mumkin. Bunda asosiy prinsip ixtiyoriylik, qonuniylik va shaxsning imkoniyatlarini hisobga olish bo'lishi lozim. Jamg'arma faoliyatining ilmiy-amaliy ahamiyatini oshiruvchi yana bir yo'nalish — hududlar kesimida ijtimoiy muammolar xaritasini shakllantirishdir. Mahallalarda yolg'iz yashovchi keksalar, ijtimoiy xizmatga ehtiyojmand shaxslar, faol nuroniylar, ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalar, yoshlar bilan ishlash tajribasiga ega faxriylar haqidagi ma'lumotlarni qonuniy va xavfsiz asosda tizimlashtirish orqali resurslarni manzilli taqsimlash mumkin. Shu bilan birga, raqamlashtirish insoniy muloqotning o'rnini bosmasligi kerak. Kexsa avlod vakillarining muammolari ko'pincha faqat ma'lumotlar bazasi orqali aniqlanmaydi. Shuning uchun raqamli vositalar va bevosita muloqotga asoslangan ijtimoiy ish usullarini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot asosida jamg'arma faoliyatini takomillashtirish uchun beshta ustuvor yo'nalishni taklif etish mumkin: birinchidan, faol nuroniylarning kasbiy va hayotiy tajribasini hisobga oluvchi ixtisoslashtirilgan jamoatchilik guruhlarini shakllantirish; ikkinchidan, jamg'arma, mahalla va ijtimoiy xizmatlar o'rtasida muammoni aniqlash va hal etishni kuzatib boruvchi yagona hamkorlik mexanizmini takomillashtirish; uchinchidan, jamg'arma faoliyatining ijtimoiy ta'sirini baholash uchun natijaga yo'naltirilgan indikatorlarni joriy etish; to'rtinchidan, faol nuroniylarni yoshlar bilan kasbiy va ma'naviy-ma'rifiy loyihalarga tizimli ravishda jalb qilish; beshinchidan, ijtimoiy xizmatlar bilan bog'liq axborot almashinuvini raqamlashtirishda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish talablarini kuchaytirish. Mazkur takliflar jamg'arma faoliyatini tadbirlar tashkil etishdan natijador ijtimoiy ta'sir yaratishga yo'naltirish imkonini beradi.

XULOSA

"Nuroniylar" jamg'armasining tashkiliy-huquqiy asoslari va ijtimoiy ahamiyatini o'rganish natijasida uning O'zbekistonning kexsa avlodni qo'llab-quvvatlash siyosatida muhim jamoatchilik instituti sifatida shakllanganini ko'rish mumkin. Jamg'armaning huquqiy maqomi va vazifalari vaqt o'tishi bilan kengayib, faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan tashqari ularning mamlatkat ijtimoiy hayotidagi ishtirokini kuchaytirish, yoshlar tarbiyasiga jalb etish, oilalar va mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ko'maklashish hamda avlodlararo hamkorlikni rivojlantirishni ham qamrab olgan. 2016-yildagi PF-4906-son Farmon, 2022-yildagi PQ-167-son qaror, 2023-yildagi PQ-92-son va PQ-410-son qarorlar hamda 2024-yildagi 892-son Vazirlar Mahkamasi qarori jamg'armaning zamonaviy faoliyat mexanizmlarini shakllantirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilgan. Ushbu hujjatlarning izchil tahlili jamg'arma faoliyatida uchta asosiy tendensiya mavjudligini ko'rsatadi: birinchisi, kexsa avlod vakillarini ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarining kuchayishi; ikkinchisi, nuroniylarning passiv yordam oluvchi subyekt emas, balki faol jamoatchilik subyekt sifatidagi rolini kengaytirish; uchinchisi, jamg'arma faoliyatining mahalla, ijtimoiy xizmatlar, ta'lim muassasalari va boshqa davlat hamda jamoat institutlari bilan integratsiyasining kuchayishi. Ayniqsa, faol nuroniylarni Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarga birlashtirish mexanizmi jamg'armaning ijtimoiy himoya tizimi bilan bevosita aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, jamg'arma faoliyatining kelgusi samaradorligi tadbirlar sonini ko'paytirish bilangina emas, balki ularning real ijtimoiy natijasini baholash, faol nuroniylarning imkoniyatlarini to'g'ri taqsimlash, professional ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va raqamli boshqaruv vositalarini oqilona joriy etishga bog'liq. Tadqiqot natijalariga ko'ra, "Nuroniylar" jamg'armasining ijtimoiy

funksiyasini yanada kuchaytirish uchun faol nuroniylarning kasbiy tajribasidan foydalanishga asoslangan ustoz-shogird va maslahat platformalarini rivojlantirish, mahallalarda ijtimoiy muammolarni aniqlash va tegishli tashkilotlarga yo'naltirishning izchil mexanizmini yaratish, jamg'arma faoliyati samaradorligini ijtimoiy ta'sir indikatorlari orqali baholash, yoshlar va nuroniylar o'rtasidagi doimiy muloqot loyihalarini kengaytirish hamda axborot almashinuvini shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish talablariga rioya qilgan holda raqamlashtirish maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, keksa avlod vakillarini jamiyatning ijtimoiy hayotidan chetlashtirmasdan, ularning tajribasi va salohiyatini yangi avlodning ta'limi, tarbiyasi, kasbiy rivojlanishi va mahalliy jamoalarning ijtimoiy barqarorligiga yo'naltirish jamiyatning avlodlararo davomiylikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu ma'noda "Nuroniylar" jamg'armasining faoliyati davlat ijtimoiy siyosatini jamoatchilik tashabbuslari bilan bog'lovchi, keksa avlodning ijtimoiy kapitalini jamiyat rivojiga safarbar etuvchi va avlodlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi institutsional mexanizm sifatida ilmiy jihatdan alohida tadqiq etilishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda PF-4906-son "O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash «Nuroniylar» jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-martdagi PQ-167-son "Nuroniylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-martdagi PQ-92-son "Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-dekabrda 892-son "Faol nuroniylarni Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarga birlashtirish hamda mahallada sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga jalb etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-dekabrda PQ-410-son "O'zgaralar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustda PQ-365-son "Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazlari va «G'amxo'rlik» markazlari faoliyatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. "Kambag'allikni qisqartirishda nuroniylar ko'makka otlandi". 2025-yil 4-yanvar.
8. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal. "Nuroniylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar".
9. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal. "O'zgaralar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish".
10. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal. "Yoshlar har bir mahalladagi faol nuroniylarga birlashtiriladi".